



## ***Yangilanayotgan O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yoshlarning o'rni mvzusidagi xalqaro anjuman materiallari, NamDU 2022, 15-iyul***

qolaversa milliy iftixorimiz, g'ururimiz tayanch bo'lajak. Har bir davlat mustaqil va ozod bo'lgandagina o'z hayoti va kelajagini mustaqil barpo etish huquqiga ega bo'ladi. **"Haq olinur – berilmas!** deb millat ozodligi yo'lida jon fido qilgan ajdodlarimizning ko'zlagan buyuk maqasadlari ham shu edi.

*"Erishilgan yutuqlarga mahliyo bo'lib o'tirish taraqqiyot yo'lidagi eng katta g'ovdir".*

***Shavkat Mirziyoyev Miromonovich***

***O'zbekiston Respublikasi Prezidenti***

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Shavkat Mirziyoyev Miromonovich Google <http://.uz>.
2. Genriy Ford hikmatlari- "Qadam" Ysh kuch Toshkent 2020-yil, 66- bet.

### **O'ZBEK VA JAHON MADANIYATI SIVILIZATSIYASI MASALALARI**

***Nurilloyeva Guljahon Azizjon qizi***

*Buxoro Davlat Universiteti San'atshunoslik*

*fakulteti talabsi +998(99)7168469*

***Ilmiy rahbar: O'rinnov Shamshod Komilovich***

*Buxoro Davlat Universiteti San'atshunoslik*

*fakulteti o'qituvchisi +998(97) 3091113*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada, jahon madaniyatining rivojlanish bosqichlari keltirib o'tilgan. Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarga to'xtanilgan. Shuningdek, mamlakatimizdagи nomoddiy hamda madaniy meros obidalarini asrab avaylash bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Madaniyat, san'at, Eftallar madaniyati , Islom madaniyati , Samoniylar madaniati, Milliy madaniy markazlar

**Аннотация:** в данной статье перечислены этапы развития мировой культуры. Также были затронуты проводимые сегодня в нашей стране реформы в сфере культуры и искусства. Также было отмечено, что в нашей стране будет проведена широкомасштабная работа по сохранению нематериального и культурного наследия.

**Ключевые слова:** культура, искусство, культура эфталитов, культура Саманидов, национальные культурные центры



## **Yangilanayotgan O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yoshlarning o'rni mvzusidagi xalqaro anjuman materiallari, NamDU 2022, 15-iyul**

**Annotation:** This article describes the stages of development of world culture. He also spoke about the ongoing reforms in the field of culture and arts in our country. It is also planned to carry out large-scale work on the preservation of intangible and cultural heritage of the country.

**Keywords:** Culture, art, Hephthalite culture, Islamic culture, Samanid culture, National cultural centers

Insoniyatni o'rabi turgan muhitning tarkibiy qismi bo'lgan odamzotning yaratuvchanlik qobiliyatini ko'z-ko'z qiladigan eng qadrli ne'matlar orasida madaniyat asosiy o'rinxlardan birini egallaydi. Madaniyatda insonning iqtidori, salohiyati va qobiliyatini o'zligini namoyon qiladi.

Odamzod madaniyatni yaratishga qancha ko'p e'tibor qaratgan bo'lsa, madaniyat ham odamzodni shuncha ko'p tarbiyalagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, madaniyatni ham inson yaratadi, madaniyatli inson bo'lishga ham insonning o'zi harakat qiladi. An'analar avval turli qabilalar orasida keyinchalik esa turli xalqlar orasida paydo bo'lgan.

Madaniyat xalqlarni xalq sifatida shakllanishiga ham xizmat qilgan. Bir xil madaniyat negizida butun bir millat shakllangan. Bir xil e'tiqod, bir xil urf odatlari insonlarning butun bir davlat shakllantirishiga asos bo'lgan.

Madaniyat inson tomonidan yaratilgan sun'iy olam va ikkinchi tabiat degan qarashlar mavjud. Qadriyatlar inson bilimlari, ko'nikma va tajribalarini, ma'naviy salohiyatini hamda amaliy faoliyat jarayonida inson ideallarining ro'yobga chiqishi va shaxs sifatida kamol topishi jarayonini o'zida aks ettiradi.

Tarixdan jamiyat taraqqiyotining muayyan davrlarida madaniyatning nihoyatda gullab – yashnagan davrlari haqida ma'lumot keltirilgan. Xususan, shunday gullab yashnagan madaniyatlardan juda ko'plarini misol qilishimiz mumkin. Mesopotamiya, Yunon, Rim, Xitoy, Kushon madaniyatları dunyo madaniyatlarining yaratilishiga asosi bo'lib xizmat qilgan. Har bir madaniyat shu yurt madaniyatlarining ma'lum qismlarini o'zlashtirgan holda ma'lum darjada umumiylit hosil qilishiga olib kelgan. Tarixdan madaniyati buyuk bo'lgan xalqlar o'zlarining urf-odatlarini boshqa xalqlar madaniyatidan yuqori bilishgan. Shuning uchun o'z madaniyatlarini o'zlaridan quyi xalqlar orasida yoyishga va o'z urf-odatlarini targ'ib qilishga harakat qilganlar. Shu orqali ko'p xalqlar orasida o'z madaniyatlarini yoyishgan.

Bizning yurtimiz ham bir necha xalqlarining madaniyatları to'qnashgan hudud sanaladi. Yurtimiz hududida amalga oshirilgan arxeologik qazishma ishlari natijasida turli xalqlar madaniyatining noyob namunalari topilgan. Yurtimiz tarixida chuqur iz qoldirgan madaniyatlar xususida aytadigan bo'lsak, Osiyo xususan, O'rta Osiyo hududida rivojlangan davlat barpo etgan Eftallar elimiz tarixida Eftallar madaniyatini vujudga kelishiga sababchi bo'lganlar. Eftallar



## ***Yangilanayotgan O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yoshlarning o'rni mvzusidagi xalqaro anjuman materiallari, NamDU 2022, 15-iyul***

davri madaniyati haqida gapiradigan bo'lsak ,bu davrda o'lkamizda juda ko'plab moddiy va ma'naviy yodgorliklar bunyod etilgan. Bu davrning moddiy me'roslari Xorazimdag'i Tuproqqa'l'a, Termiz yaqinidagi Bolaliktepa manzilgohlari hisolanadi. Bu manzilgohlari Eftallarning yorqin bezak san'ati, o'sh davr me'morchilik san'ati namunalari aks ettirilgan.

Eftallar davrda o'lkamizda yozuv madaniyati ham rivoj topgan . O'sha davrda o'lkamiz aholisasi orasida keng tarqalgan sug'd yozuvi bilan birgalikda eftaliy yozuvi ham keng tarqalgan. Bu yozuvlarda tariximiz, qimmatli bitiklarimiz, turli yilnomalarni bitilgan. Har bir madaniyatining asosi xalqning eposlari, qo'shiqlari va dostonlarida ma'lum ma'noda o'z ifodasini topadi.

Eftallar davri qo'shiqlari va eposlari A.Firdavsiyning mashhur " Shohnoma" asarida o'z ifodasini topgan. Eftallar davrida xalqimizning o'ziga xos boy madaniy va ma'rifiy turmush tarzi yaratilib, insonlarning ma'naviy ongi yuksalgan.

VII-VIII asardagi arablar istilosiga O'rta Osiyo xalqlari madaniyatida ham tub burilish yasadi. Islom madaniyati adabiyot, san'at, fan, falsafa , axloq ,urf-odat , ta'llim-tarbiya kabilarning barchasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Islom dini va madaniyatining kirib kelishi ko'plab xalqlarning ma'naviy boyliklari, an'analarining aralashuviga sabab bo'ldi. Bu davrda musulmon madaniyati juda katta nufuzga ega bo'ldi. Musulmonlar va O'rta Osiyo xalqlarining aralashuvi natijasida ko'plab mamlakatlarda madaniy inqiloblar vujudga keldi. Bu inqiloblar natijasida madaniy jihatdan qaloq bo'lib kelayotgan xalqlar sekin – sekin madaniylasha boshladi.

Yurtimizda islom madaniyati Somoniylar davrida ancha yuksak darajada yoyilgan. Islom dinining keng yoyilishi xalqimizning barcha e'tiqodlarida o'z ifodasini topgan. Buyuk allomalarimiz so'z asarlarini islom dini qonun qoidalari asosida yarata boshlaydilar. Me'morchilik, san'at sohasidagi o'zgarishlar ham vujudga keladi. Somoniylar davrida moddiy va ma'naviy madaniyatimizning yorqin na'munalari vujudga keldi. Samoniylar davrida bunyod etilgan moddiy madaniy me'rosimizning yorqin na'munasi Buxoro hududida joylashgan IX asrda Ismoil Somoniy tomonidan bunyod etilgan dastlabki me'moriy yodgorlik Somoniylar maqbarsidir. Maqbara haqida qisqsacha ma'lumot beradigan bo'lsak, maqbaran Ismoil Somoniy otasining qabri ustiga qurdirgan degan taxminlar mavjud [1].

Somoniylar davrida ma'naviy va madaniy me'roslarimizning salmog'i ham eftallar davridagidan kam emas. Samoniylar hukumronligi yillarida ko'plab allomalarimiz o'zlarining turli sohaga oid ilmiy risolalarini yaratdi.

Bu davrda yaratilgan asarlar butun Osiyo va Yevropa mamlakatlariga ko'p yillardan to bugungi kungacha ham qo'llanma sifatida foydalanib kelimoqda. Xususan, Abu Nasr al-Farobi, Abu Ali ibn Sino , Muhammad al-Xorazimi kabi qomusiy allomalarimiz Samoniylar davrida jod qilganlar. Allomalarimizning biz yoshlarga qoldirib krtgan asarlari bugungi kunda



## **Yangilanayotgan O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yoshlarning o'rni mvzusidagi xalqaro anjuman materiallari, NamDU 2022, 15-iyul**

ham o'z mavqeini yo'qotmagan . Necha asrlardan buyon ular yaratgan asarlar ko'plab olimlarning ilmiy tadqiqotlari mavzusiga aylangan. Shu yillard yaratilgan asarlar ko'plab sohalarning shakllanishiga asos bo'lган. Samoniylar davrida izlanishlar olib borgan olimlarimiz turli sohalar o'z tadqiqotlarini amalga oshiradi. Matematika, musiqa, falsafa, geografiya, geodeziya va shu kabilar. Bu davr ilm fan va madaniyat sohalarida birmuncha yuksalishga erishilgan davr sanaladi.

Bugungi kunda ham yurtimizda o'rta asrlardan saqlanib kelayotgan moddiy va nomoddiy madaniy me'roslari tiklashga va ularni zamon ruhiga moslashtirgan holda targ'ib qilish asosiy vazifa qilib olingan. Prezidentimiz ham bu borada turli qaror va farmonlarni imzolab kelmoqdalar. Prezidentimizning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi "da ham madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar haqidagi bandi bo'yicha turli yangidan yangi loyihalar amalga oshirilmoqda . Madaniyat sohasini rivojlantirish va yoshlar ongida turli madaniyatlarning ommaviy tarzda o'rin olishiga yo'l qo'ymaslik va yaxshi tashkil etilayotgan turli madaniy ko'ngil ochar tadbirlarni tashkil etish va uzoq yillardan buyon biz avlodlar uchun ibrat bo'lib kelayotgan qadriyatlarni aholi orasida tag'ib etishga qaratilgan farmonlarning qabul qilinishi , madaniyat sohasiga bo'lган e'tiborning yildan yilga yangilanayotgani va kishilar ongida shu tushunchalarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Prezidentimizning say harakatlari bilan bugungi kunda ko'plab madaniy yodgorliklarimiz qayta tiklanib, ko'plari qayta rekansturuksiya qilinmoqda. Bundan tashqari madaniyatlarimizni jahon miqyosida tasrg'ib qilish uchun ko'plab davlatlar bilan madaniy a'lloqalar yo'lga qo'yilgan . Bu esa o'z navbatida bizning ham boshqa davlatlarning madaniyatlari bilan tanishishimizga xizmat qiladi.

Yurtimizning har bir hududida "Milliy madaniy" markazlar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, bular o'z faoliyatlarini boshqa davlatlarning madaniyat markazlari bilan hamkorlikda olib boradilar. Bu mamlakatimizning boshqa davlatlar bilan olib borilayotgan siyosatlarida yaxshi natijalarga erishilganligidan darakdir.

[1].M.Saidjonov topgan "vaqfnoma " asaridan

### **Foydalangan adabiyotlar**

1. O'zbekiston, 1999.Bulgakov P.G. Marv haqidagi arab manbalaridan. // Ishlar YUTAKE. Ashxobod, 1963. T. XII. 213-214-betlar
2. Vamberi G. Buxoro yoki Transoksanija tarixi eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha. SPb. , 1873. P.110



## ***Yangilanayotgan O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yoshlarning o'rni mvzusidagi xalqaro anjuman materiallari, NamDU 2022, 15-iyul***

3. G'ofurov B.G. tojiklar. qadimgi, qadimgi va o'rta asrlar hikoya. M., 1972. B.50.
4. Ilyosov J. Eftalitlar muammosiga oid ayrim mulohazalar // Transoksiana. Tarix va madaniyat. Shanba. maqolalar. T., 2004. B.117.
5. Karomatov H. O'zbekistonda moziy e'tiqodlar tarixi. T.: 2009 yil.
6. Qurbanov A. Eftalitlar (tarixdan ocherklar). Sankt-Peterburg, 2006. 28-bet.

### **ГЕНДЕРНЫЕ ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ**

**Гулнора Эргашева**

*студент направления педагогика-психология*

*Ферганский государственный университет*

**Аннотация.** В последние годы в нашей стране проводится эффективная работа по обеспечению гендерного равенства в обществе, созданию достойных условий труда и жизни для женщин. Данная статья посвящена проблеме гендерного равенства в Узбекистане.

**Ключевые слова:** гендер, женщина, равенство, женская тетрадь

### **GENDER RIGHTS IN UZBEKISTAN**

**Annotation.** In recent years, effective work has been carried out in our country to ensure gender equality in society, create decent working and living conditions for women. This article is devoted to the problem of gender equality in Uzbekistan.

**Keywords:** gender, woman, equality, women's notebook

### **O'ZBEKİSTONDA GENDER HUQLQLARI**

**Annotatsiya.** So'nggi yillarda mamlakatimizda jamiyatda gender tengligini ta'minlash, xotin-qizlar uchun munosib mehnat va turmush sharoitlarini yaratish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqola O'zbekistonda gender tengligi muammosini yoritishga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** gender, ayol, tenglik, ayollar daftarchasi